

Surxondaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

IV. METAMA'LUMOTLAR

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 5 158 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 086 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-may oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 10 236,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 109,1% ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 449,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 145,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 787,6 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 082,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 111,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 375 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 359 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-may oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 078,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 3 715,6 mlrd so'mni tashki lqilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 91,1 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzugadoirhavola:[Ulgurjisavdohajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Uzon (34,1m.), Denov (129,6 %) va Boysun (103,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



Mavzuga doir havola:[Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025-yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 473 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 472 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-may oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 527,1 mldr so'mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



2024-y.

2025-y.



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliyhisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDHqo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi ion boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi ion boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga mas'ul: Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A. Dusnazarov Tel: +998554518000 (7540)	Ijrochi: I. Yusupova Tel: +998554518000 (7541) e-pochta:info@surxonstat.uz	Manzil: 190108, Termiz sh. at-Termiziy ko'chasi,7-uy,
---	--	---	---